

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/24.09.2025.Fil.197.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLBOYEVA IRODA SHUXRAT QIZI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK KOMPONENTLI
PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARNING CHOG‘ISHTIRMA
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.512.133'373.7+811.111'373.7

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy
(PhD) in Philology**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi

O'zbek va ingliz tillarida somatik komponentli proverbial frazeologizmlarning
chog'ishtirma tadqiqi **3**

Kholboyeva Iroda Shukhrat kizi

Contrastive study of proverbial phraseological units with somatic components in
Uzbek and English languages **26**

Холбоева Ирода Шухрат кизи

Сопоставительное исследование паремийных фразеологических единиц с
соматическими компонентами в узбекском и английском языках **51**

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of publications
Список опубликованных работ..... **56**

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/24.09.2025.Fil.197.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLBOYEVA IRODA SHUXRAT QIZI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK KOMPONENTLI
PROVERBIAL FRAZELOGIZMLARNING CHOG‘ISHTIRMA
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PhD/Fil5817 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tues.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Mamataliyeva Navbahor Xo'jamberdiyevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bakirov Poyon Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Sherzod Xalikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, huzuridagi PhD.03/24.09.2025.Fil.197.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» dekabr soat 9.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «19» dekabr dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



O.P.Uralova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Z.R.Narmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

B.Umurqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida til tizimining turli sathlariga tegishli leksik birliklarning shakllanishi va semantik ifodasi tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Mazkur jarayonda frazeologik birliklar alohida semantik guruh sifatida ifodalanishi, ularning kommunikativ-pragmatik jihatdan nutqda voqelanishiga xos xususiyatlarni, frazemalarni ifodalovchi leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik, struktur, pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash hamisha ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Xususan, bunday leksik birliklarni somatik birliklar bilan bog'lab o'rganish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida somatik frazeologizmlarni chog'ishtirma aspektida o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar salmog'i ortib bormoqda. Ularda frazeologizmlarning semantik-struktur, milliy-madaniy, antropotsentrik hamda konseptual tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, frazeologik birliklar har bir xalqning an'analari, turmush tarzi, e'tiqodi, tarixi bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarini ekspressiv va obrazli-hissiy shaklda aks ettiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o'zbek tilini rivojlantirishga, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari tadqiqiga katta urg'u berilmoqda. Shuningdek, "fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish"ga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹ Bu esa, o'z navbatida, tilning ichki imkoniyatlarini tadqiq qilish, milliy ma'naviyatni takomillashtirish va uni yoshlar ongiga singdirishda alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu borada turli tizimli tillarda *somatik* komponentli frazeologik birliklarning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
https://nrm.uz/contentf?doc=602358_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida E.D.Polivanov, N.N.Amosova, M.T.Tagiyev, N.M.Shanskiy, I.I.Chernisheva, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, V.M.Mokiyenko² kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida frazeologiyani tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib shakllanishi va uning turli qirralariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbek tili frazeologik birliklariga doir dastlabki ilmiy izlanishlar M.Xusainov, Sh.Rahmatullayev, M.Ruzikulova, Y.Pinxasov, M.Umarxodjayev, A.Isayev, H.Berdiyev, H.Yo‘ldoshev, A.M.Bushuy, X.Kaxxorova, A.Shomaqsudov³larning tadqiqotlarida yoritilgan.

Ingliz tilshunosligida N.R.Norrik, B.Altenberg, A.R.Kovi, R.Glezer, G.Knappe, E.Fraser, J.Gibbons, A.De La Granja, Y.Kamakura, M.L.Beshaj,

² Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI. – Ленинград: Издательство Ленинградского восточного института, 1928. – 229 с.; Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 227 с.; Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка. – Баку: Маариф, 1966. – 150 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1969. – 315 с.; Чернышева Н.И. Фразеология современного немецкого языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 200 с.; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1972. – 288 с.; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Высшая школа, 1977. – 267 с.; Мокиенко В.М. Славянская фразеология – Москва: Высшая школа, 1980. – 207 с.

³ Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. АКД. – СамГУ, 1959. – 18 с.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 264 б.; Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – 22 с.; Пинхасов. Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 80 б.; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва., 1972. – 27 с.; Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.; Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд: Нашриётсиз, 1977. – 38 б.; Бушуй А.М. Лексикографические описание фразеологии. – Самарканд: Издательство Самаркандского государственного университета, 1982. – 114 с.; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с.; Каххарова Х. Фразеология Абдуллы Кадыри: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 24 с.; Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 528 б.

A.Vrbins, M.Vrbins, A.A. Dabrovska⁴ kabi g'arb olimlarining ilmiy tadqiqotlarida frazeologik birliklarning semantik, lingvomadaniy, struktur kabi jihatlarini tadqiq etilgan.

Somatizm va ularning frazeologik birliklarda ifodalanishi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarga Yu.A.Dolgoplov, Ye.F.Arsenteva, Ye.V.Nikolina, A.Yu. Musalova, N.A.Turapova⁵ kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi somatik frazeologizmlar nazariy jihatdan birinchi bo'lib A.Isayev⁶ tomonidan tadqiq etilgan.

Maqolni paremiologik birlik sifatida o'rganishda A.Taylor, A.Dantes, V.Mayder, J.Rey, G'.Salomov, M.Fozilov, M.To'ychiyev, M.Hakimov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.M.Jo'rayeva, A.Musoqulov, P.U.Bakirov, G.I.Ergasheva, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliyeva, Sh.Tojiboyev, M.A.Temirova, O.P.Uralova⁷ kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida

⁴ Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – 213 p.; Bengt Altenberg, A.R. Cowie. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 238 p.; Gläser, Rosemarie. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // Phraselogy. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 245 p.; Knappe G. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study before 1800. – — Bern; Berlin; Bruxelles; Frankfurt am Main; New York; Oxford; Wien: Peter Lang, 2004. – 664 p.; Fraser Edward, Gibbons John. Soldier and Sailor Words and Phrases. – New York: E.P. Dutton and Company, 2004. – 372 p.; Álvarez de la Granja, María (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. – Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. – 386 p.; Kamakura Y. Collocation and preposition sense: a phraseological approach to the cognition of polysemy. A thesis submitted to the University of Birmingham for the degree of doctor of philosophy (PhD). – Birmingham, 2011. – 337 p.; Beshaj M.L. Phraseological Units Used in the Functional Styles in English and Albanian Language // Mediterranean Journal of Social Sciences// pub.by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome: Vol – 4 № 2; May, 2013. – P.453-456.; Vrbinc A., Vrbinc M. Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene // Revista de Lingüística Teórica y Aplicada. Concepción (Chile), 52 (1), I Sem. 2014. – P.133-153.; Dabrovska A.A. Syntactic Study of Idioms. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 372 p.

⁵ Долгополов Ю.А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии (на материале русского, английского и немецкого языков): Автореф. дисс. канд. филол.наук. – Казан, 1973. – 27 с.; Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц (на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках). – Казань: Издательство Казанского университета, 1989. –130 с.; Николина Е.В. Соматические фразеологизмы, характеризующие человека в тюркских языках Сибири и казахском: Автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Новосибирск, 2002. – 24 с.; Мусалова А.Ю. Соматические фразеологические единицы в ногайском языке в сопоставлении с английским: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2015. – 186 с.; Турапова Н. А. Япон ва ўзбек тиллари соматик фразеологизмларининг чоғиштира таҳлили (лингвомаданий аспект). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2020. – 146 б.

⁶ Исаев А. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1976. – 28 б.

⁷ Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia, 1975. – 203 p.; Dundes A. On the structure of the Proverb, Mieder, W. & Dundes A. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. – Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press, 1994. – 352 p.; Meider W. Proverbs: A Handbook. – London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; Ray J. A complete collection of English proverbs. Forgotten books. – London, Dalton house, 60, Windsor Avenue, 2013. – 319 p.; Саломов Ф. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – 159 б.; Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 1967. – 191 б.; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. – Самарқанд, СамДПИ асарлари. 1971. – 87 б.; Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. –Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 1. – Тошкент, Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. –

maqollarning etimologik, semantik, struktur, tarjima va lingvomadaniy xususiyatlari atroflicha tahlilga tortilgan.

Proverbial frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli. Sohaga oid tadqiqotlarga nazar tashlanganda A.Nasirov va Z.Narmuratovlarning tadqiqot ishlari diqqat-e'tiborimizni tortadi, unda proverbial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib, ko'chma ma'nodagi maqollar proverbial frazeologizmlar tarkibiga kiritilgan. To'plangan misollar frazeo-semantik maydonlarga bo'linib, ularning ma'no va shakli, milliy-madaniy xususiyatlari tahlilga tortilgan.⁸

G'arb tilshunosligida qator olimlar frazeologik birliklar tarkibiga paremiologik birliklarni ham kiritadi. Jumladan, R.Glezer va A.Kovi o'zining tadqiqot ishlarida barqaror birikmalarning barcha turiga nisbatan *frazeologik birlik* terminini qo'llaydi.⁹

Dissertatsiyani yozish jarayonida bir qator jahon, o'zbek va ingliz tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda ingliz va o'zbek tillaridagi *somatizm* asosida shakllangan frazeologik birliklarning semantik, jihatlariga e'tibor qaratilgan hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari chog'ishtirma planda o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Ingliz filologiyasi kafedrasida "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusida ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

372 б.; Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Кароматова М.М., Кароматов Ҳ.С. Proverbs-мақоллар-пословицы. – Тошкент: Мехнат, 2000. – 400 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007. – 334 с.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.; Назаров Б.П. Бакалавр тайёрлашнинг қуйи босқичида немис тилини коммуникатив методика асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш. Педагогика фанлари номзоди дисс. – Самарқанд, 2012.–186 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2017. – 151 б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами). – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Темирова М.А. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида "оила" бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021.– 144 б.

⁸ Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларида провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий - маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. – Тошкент, 2016. – 248 б.; Narmuratov Z. R. "Ta'lim" va "ilm" mazmunli frazemalarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida). Filol fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2024. – 246 b.

⁹ Gläser R. The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 25.; Cowie A.R. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – USA, Oxford University Press, 2012. – 272 p.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi somatik komponentli proverbial frazeologizmlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

frazeologik birliklarga oid ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish, o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida mazkur til birliklari yuzasidan konseptual xulosaga kelish;

o'zbek va ingliz tillarida proverbial frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini ochib berish;

chog'ishtirilayotgan tillardagi tananing yuqori qismi asosida shakllangan somatik komponentli frazeologizmlarning tahlili orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

qiyoslanayotgan tillardagi tananing o'rta va pastki qismi asosida shakllangan somatik komponentli frazeologizmlarning tahlili orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi somatik komponentli proverbial frazeologizmlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini chog'ishtirilayotgan tillarda *somatik komponentli* proverbial frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda leksik-semantik, chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash lingvomadaniy tahlillar (madaniyatlararo), shuningdek, statistik, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari ularning insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligi va semantik-struktur mohiyati har ikkala xalq tarixi, milliy mentaliteti, moddiy hamda ma'naviy madaniyati, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy kundalik turmush tarzi, qadriyati hamda diniy e'tiqodi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlari, mamlakatlarning geografik joylashuvi kabi omillar ta'sirida shakllanganligi dalillangan;

qiyoslanayotgan tillardagi proverbial frazeologizmlarning muqobillari hisoblangan monoeqvivalentlik, poliekvivalentlik, ma'noviy ekvivalentlik, ekvivalentsiz frazeologik birliklar kabi turlari gap yoki fikr tema va remasini belgilashda (ingliz tilidagi *to know the way the wind blows* (shamol qaysi yo'ldan esishini bilmoq), o'zbek tilidagi *yulduzni benarvon uradigan* kabi frazeologik birliklarning farqli jihatlari aniqlangan bo'lsa, ingliz tilidagi *to have smth at one's finger ends* (biror narsani barmog'ining oxirida deb bilmoq), o'zbek tilidagi *besh qo'lday bilmoq* kabi o'xshash tomonlari namoyon bo'lishi aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillaridagi somatik komponentli frazeologik birliklar semantik valentligiga qarab aniqlovchi tanlashda ularning konnotativ va denotativ ma'nolari birlamchi, ma'nodagi kuchlilik-kuchsizlik, ijobiylik-salbiylik, uslubiy xoslanganlik, darajalanish, tarixiylik omillarining ikkilamchi ahamiyati asoslangan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi somatik komponentli proverbial frazeologizmlar vositasida inson tashqi va ichki obrazlarini bolalik, qarilik, sog‘lik, o‘lim, boylik, kambag‘allik, oilaviy munosabatlar kabi ideografik guruhlar asosida ochib berish orqali lingvomadaniy o‘ziga xos somatik frazeologizmlarning kundalik turmush tarzi, an‘ana va marosimlar, milliy mentaliteti, an‘anaviy xo‘jaligi, ijtimoiy kundalik turmush tarzi, qadriyati hamda diniy e‘tiqodi negizida shakllanganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek va ingliz tillarida somatik komponentli proverbial frazeologizmlarni semantikasi, lingvomadaniyati bilan bog‘liq jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarining qiyosiy tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi, “Tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Uslubiyat”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Qiyosiy tipologiya”, “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

- o‘zbek va ingliz tillarida somatik komponentli proverbial frazeologizmlarni semantikasi va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodikaning qardosh va noqardosh tillarga xos boshqa tipdagi paremlarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

- somatik komponentli proverbial frazeologizmlarning o‘zbek va ingliz tillaridagi chog‘ishtirma tahlili amalga oshirilgan;

- frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi va o‘rganilishida ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar leksik-semantik, chog‘ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, statistik, komponent tahlil metodlari bilan asoslanganligi, shuningdek, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini o‘rganishda, milliy matnlarga xos xususiyatlarni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, lingvomadaniy tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda, somatik komponentli proverbial frazeologizmlarning lingvokulturologik qiymatini belgilashda ko‘rinadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar somatik komponentli proverbial frazeologizmlarni ingliz, o‘zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, Oliy ta‘lim tizimida “Lingvokulturologiya”, “Leksikologiya”, “Qiyosiy tipologiya” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida “Lingvistik tadqiqot metodlari”, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari” kabi

yoʻnalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek va ingliz tillarida somatik komponentli proverbial frazeologizmlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

qiyosiy adabiyotshunoslik va chogʻishtirma tilshunoslik sohalariga oid bilim va koʻnikmalarini rivojlantirish, shuningdek, taʼlim tizimi jarayonini namunali tashkil etish va mustahkamlashda Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda PF-201912258 “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 28-aprel № 01/4-1707-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek va ingliz tillaridagi somatik komponentli frazemalarning semantikasi, ularning lingvomadaniy tahlili asosida zamonaviy leksikologiyaga doir muammolarning yechimini topishning yangi yoʻnalishlari ishlab chiqilgan;

oʻzbek va ingliz tillaridagi frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari va semantik mohiyati har ikkala xalq tarixi va milliy mentaliteti, moddiy va maʼnaviy madaniyati, anʼanaviy xoʻjaligi, ijtimoiy va kundalik turmush tarzi, qadriyati va diniy eʼtiqodi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuygʻulari, urf-odatlar, mamlakatlarning geografik joylashuvi kabi omillar taʼsirida shakllanganligi va ular insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarga moʻljallangan AM-F3-201908172 “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-aprel № 01/4-1362-son maʼlumotnomasi). Natijada ilmiy izlanuvchilarga, talabalarga oʻzbek va ingliz xalqlarining anʼanalari, urf-odatlar, turmush tarzini qiyoslash imkoni paydo boʻlgan, maʼnaviy qadriyatlar tizimida alohida oʻrin egallagan bayram, oʻyin, marosimlar, xalq ogʻzaki ijodi haqidagi matnlar boʻyicha lingvokulturologiya, etnolingvistika kabi yoʻnalishlar boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hajmi koʻpaygani haqida xorijiy til professor-oʻqituvchilari va talabalarga maʼlumot berilgan;

oʻzbek va ingliz tillaridagi proverbial frazemalarining farqli va oʻxshash tomonlari aniqlanib, ularning xalq madaniyati bilan bogʻliq darajasini solishtirib oʻrganish toʻgʻrisidagi mulohaza, xulosa va natijalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali”ning “Taʼlim va taraqqiyot”, “Bolalar uchun”, “Oʻzbekiston yoshlari” eshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston Teleradiokanali”ning 2025-yil 7-aprel №05-09-431-son maʼlumotnomasi). Natijada ilmiy izlanuvchilarga, talabalarga ingliz va oʻzbek xalqlarining anʼanalari, urf-odatlar, turmush tarzini qiyoslash imkoni paydo boʻlgan, maʼnaviy qadriyatlar tizimida alohida oʻrin egallagan bayram, oʻyin, marosimlar, xalq ogʻzaki ijodi haqidagi matnlar boʻyicha lingvokulturologiya, etnolingvistika kabi yoʻnalishlar boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hajmi koʻpaygani haqida

xorijiy til professor-o'qituvchilari va talabalarga ma'lumot berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola jumladan, 7 ta respublika miqyosidagi va xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning **“Proverbial frazeologizmlarni o'rganilishining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi frazeologik birliklarning nazariy tadqiqiga bag'ishlangan. Unda jahon, ingliz va o'zbek tilshunoslarining frazemalar, xalq maqollari ustida olib borgan ilmiy izlanishlari, xususan, ularning tarixi, semantik xususiyatlari, frazemalarning maqollarga bo'lgan munosabati, proverbial frazeologizmlarning ifodalanishi kabi masalalari o'rganilgan hamda ular yangi nazariy fikrlar bilan boyitilgan.

“Frazеologiya atamasi turkiyshunoslikda *fraza* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab *jumla, gap*”¹⁰ ma'nosida qo'llanilgan bo'lishiga qaramay turkiyshunoslikdagi *turg'un birikmalarni, maqollarni* yig'ish va ularni muayyan tizimlashtirish, o'rganish ancha oldin boshlangan. XV va XVIII asrlarda yaratilgan eski o'zbek lug'atlarida ham frazeologizmlardan ayrim namunalar keltiriladi. Chunonchi, 1759-1760-yillarda yaratilgan Mahdixonning “Sangloh” lug'atida *so'ngi uyqu* kabi frazeologizmlar keltiriladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida A.Starcheskiyning “Спутник русского человека в Средней Азии” (1878), V.I.Nalivkin va M.I.Nalivkinaning “Руководство к практическому изучению сартовского языка” va бошқа lug'atlarida *мулахиза қылмок, джума намаз* kabi namunalar keltiriladi.¹¹ Ilmiy manbalarda ingliz filolog olimi Neandr tomonidan

¹⁰ Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. – Казань: Типография Императорского Казанского университета, 1846. – С. 120.

¹¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2019. – Б.26.

1558-yilda *frazeologiya*¹² termini birinchi marta qoʻllanganligi qayd etildi. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu terminni ishlatishga majbur boʻlgan. Shundan soʻng ushbu termin dunyo filologiyasida qoʻllanila boshlandi.

Tahlillardan maʼlum boʻlishicha, bu davrlarda soʻz birikmalari, jumladan, frazeologizmlar lugʻatshunoslik ixtiyorida boʻlgan, ular hali ilmiy tadqiq etilmagan, faqat amaliy qoʻllanilgan. Leksikografik ishlar soʻz birikmalarini va frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishda samarali turtki boʻlgan.

Oʻzbek tili frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab Y.D.Polivanov tomonidan oʻrganilgan. U rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini oʻrganib, shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajralib chiqishiga hissa qoʻshgan olimlardan biri hisoblanadi. Frazeologik birliklarga nisbatan tan olingan yagona va mukammal qarash mavjud emasligi ushbu masalaning doim bahs-munozaraga sabab boʻlishiga va ularning xarakterli xususiyatlarini oʻrganishga undaydi. Akademik V.V.Vinogradov “Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati ularning shakl jihatdan barqarorligida boʻlib, ular nutq jarayonida paydo boʻlmay, balki inson ongida tayyor holda shakllanadi va kamida ikkita mustaqil soʻzning yaxlit maʼno anglatishidan yuzaga keladi”¹³ – deb taʼkidlaydi. U rus tili materialida frazeologizmlar tasnifini ishlab chiqadi va ularni *frazeologik chatishma*, *frazeologik birlik* va *frazeologik birikma* kabi turlarga ajratadi¹⁴. Uning bu tasnifi koʻpgina dunyo frazeolog olimlari tomonidan tan olinadi. V.V.Vinogradovning tasnifidan foydalanib, N.M.Shanskiy frazeologizmlarning toʻrtinchi turi etib *frazeologik ifodalarni*¹⁵ koʻrsatadi. N.M.Shanskiy frazeologizmlarni leksik tarkibiga koʻra ajratib, frazeologik iboralarni strukturaviy kelib chiqish va ekspressiv-stilistik xususiyatlari nuqtayi nazardan taʼriflaydi.¹⁶

Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlarni oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlarda ular uch guruhga ajratilgan.¹⁷ Jumladan, *frazeologik qoʻshilma*, *frazeologik birlashma*, *frazeologik chatishma*.

Ingliz tadqiqotchisi F.R.Palmer esa idiomalarni *sof idiomalar (pure idioms)*, *qisman idiomalar (partial idioms)* kabi turlarga ajratadi. Unga koʻra, idiomalarning nutqda qoʻllanilishi turli grammatik va sintaktik cheklovlar bilan bogʻliqdir¹⁸. Taniqli ingliz leksikologi va leksikografi Mayk Makkarti idiomalarni *opaque idioms* – tushunarsiz, noaniq idioma; *semi-opaque idioms* – yarim

¹² Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск: Издательство Поморского государственного университета, 2000. – 132 с.

¹³ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.118-139.

¹⁴ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.140-161.

¹⁵ Молоткова А.И. Фразеологический словарь русского языка – Москва: Прогресс, 1986. – С.8.

¹⁶ Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Выс. школа, 1969. – С.173.

¹⁷ Рахматуллаев Ш. Фразеологик бирикларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1955. – 27 б.; Мирзаев М., Усмонов С., Расулова И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 44-45.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврӯз нашриёти 2019. – Б. 24.; Усмонов С. Умумий тилшunoslik. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 208 б.

¹⁸ Palmer F.R. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – P.75-82.

tushunarsiz, yarim noaniq; *transparent idioms*¹⁹ – shaffof idioma kabi turlarga ajratgan. Bular ko'pgina adabiyotlarda umumiy – frazeologizm nomi bilan beriladi. Biz esa tadqiqotda frazema atamasini qo'lladik. Boshqa ilmiy manbalarda bu tasnifning boshqa turlari ham ko'rsatilgan. G'arb olimlari orasida R.Glezer o'zining tadqiqot ishlarida barqaror birikmalarning barcha turiga nisbatan *frazeologik birlik* terminini qo'llaydi. Uning fikricha, “kamida ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan, sintaktik va semantik turg'unlikka ega barqaror birikmalar frazeologik birliklardir”.²⁰ Frazeologik birliklar masalasida har bir til nuqtayi nazaridan turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, B.Yo'ldoshev o'zining doktorlik ishida an'anaviy tilshunoslik nazariyasiga tayanib, *frazeologik birlik, ibora va frazeologizm*²¹ atamalarini o'zaro sinonim sifatida qo'llaydi.

Demak, turli nomlar bilan ataluvchi, mantiqan bir ma'noni bildiruvchi *frazeologizm, ibora va frazeologik birliklarni* bog'lab turuvchi asosiy xususiyat ko'chma ma'no bildirishi, barqarorligi va tilda tayyor holda uchrashi bilan bog'liq.

Professor A.E.Mamatovning qarashlari bu fikrlarga shu jihatdan yakun yasaydi: “Hozirgi bosqichda alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorligi, yaxlitligicha qo'llaniladigan, tayyor holda mavjudlik, obrazlilik, semantik qayta shakllanish kabilar frazeologizm”²²larning asosiy belgilari sifatida ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, dunyo tilshunosligida frazeologizm tushunchasini keng va tor mazmunda tushunish tendensiyasining mavjudligi sir emas. Qator lingvistlar mazkur til birligini keng ma'noda tushunib, uning obyektini ko'plab birliklar qamrab olishini bot-bot ta'kidlashadi. Har-bir sohada qarama-qarshiliklar bo'lgani kabi ushbu til birliklari haqida ham olimlarning fikr-mulohazalari turlicha.

Tadqiqotchi N.N.Amosova, Y.D.Pinxasov, A.M.Babkin, B.Jo'rayevalar frazeologiyani obyektini tor doirada tushunib, o'z asarlarida ushbu birliklarni o'z tabiati bilan so'z birikmasidir, degan dalilni keltiradilar va o'z navbatida maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan chetda qoldiradilar.²³ V.V.Vinogradov, A.V.Kunin²⁴ kabi olimlar frazeologiyani keng ma'noda tushunib, maqol va matal kabi birliklarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritadilar.

Ingliz tadqiqotchisi N.R.Norrik ko'chma ma'no anglatgan maqollarni

¹⁹ McCarthy M. Vocabulary. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 173 p.

²⁰ Gläser R. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // Phraselogy. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P.25.

²¹ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1993. – Б.4.

²² Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.20.

²³ Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 227 с.; Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 80 б.; Бабкин А.М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. Монография. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 221 б.

²⁴ Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва: Феникс, 1972. – 206 с.

ibora²⁵lar tarkibiga kiritadi. J.Rey esa proverbial frazeologizmni shunday izohlaydi: *“Proverbial phrase is usually defined, an instructive sentence, or common and pithy saying, in which more is generally designed than expressed, famous for its peculiarity”*²⁶ [maqolsimon ibora odatda ibratli jumla yoki umumiy va sodda gap bo‘lib, unda ifodalanganidan ko‘ra ko‘proq mo‘ljallangan, o‘ziga xosligi bilan mashhur bo‘lgan til birligi]. I.R.Galperin tomonidan tuzilgan inglizcha-ruscha lug‘atda proverbial atamasi maqol, matal va boshqa iboralar²⁷ga tegishli termin sifatida sharhlangan. A.Narziqulov proverbial frazeologizm terminiga “Maqol va matallarning o‘ziga xosligi ulardagi o‘z ma‘nosi hamda ko‘chma ma‘nolilikning mavjudligidir deb, ularni proverbial frazeologizm²⁸ sifatida ta‘rif beradi. Tadqiqotchi Adams, Oven, Arvo Krikmanlar proverbial frazeologizmlarni quyidagicha ta‘riflaydi. *“A proverbial phrase or expression is a type of conventional saying similar to a proverb and transmitted by oral tradition. The difference is that a proverb is a fixed expression, while a proverbial phrase permits alterations to fit the grammar of the context”* [maqolsimon ibora yoki iborasimon matal-maqolga o‘xshash va og‘zaki urf-odatlar orqali uzatiladigan shartli so‘zlarning bir turi. Farqi shundaki, maqol o‘zgarimas iboradir, maqolsimon ibora esa kontekstning grammatikasiga mos keladigan o‘zgarishlarga imkon beradi].²⁹

Bizning fikrimizcha proverbial frazeologizmlarning asosiy belgilari turg‘unlik, ko‘chma ma‘no yoki majozilik, semantik tutashlik, ifodaliligi bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. Ushbu xususiyatga ega bo‘lgan barcha paremiologik birliklar proverbial frazeologizmlar sifatida gavdalanishi mumkin.

Shu bilan birga so‘nggi yillarda tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibiga proverbial frazeologizmlarni kiritib o‘rganish doirasidagi tadqiqotlar ancha keng tus oldi. Rus tilshunosi V.O.Chernoshchekovaga ko‘ra, *proverbial* termini keng ma‘noli bo‘lib, maqol, matal va yumuq iboralarni qamrab oladi.³⁰ A.A.Nasirov va Z.Narmuratovlar ham frazeologik birliklarni keng va tor ma‘noda izohlamasdan, maqol-matal kabi birliklarni, ya‘ni proverbial frazeologizmlarni frazeologik birlik³¹lar tarkibida o‘rgangan.

Ta‘kidlash joizki, majoziy ma‘nodagi paremiologik birliklar aynan shu belgi tufayli proverbial frazeologizmlar qatoriga kiradi. Biz ham tadqiqotimizda

²⁵ Norrick N.R. How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – P. 13.

²⁶ Ray J. A complete collection of English proverbs. Forgotten books. – London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.

²⁷ Гальперин И.Р. Большой англо-русский словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1972. – С.267-863.

²⁸ Нарзикулов А.М. Французская фразеология и вопросы француско-узбекского художественного перевода. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1969. – 19 с.

²⁹ Adams O.S. Proverbial Phrases from California // Western Folklore. – Logan, Utah: Western States Folklore Society, 2023. – Vol. 8, No. 2. – P. 95–116. doi:10.2307/1497581. JSTOR 1497581.; Krikmann A. The Great Chain Metaphor: An Open Sesame for Proverb Semantics? // Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship. – Burlington, VT: University of Vermont, 1994. – P.117-124.

³⁰ Чернощекова В.О. Лингвокультурный аспект пословиц // Язык и культура. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2009. – С. 83. – Электронный ресурс: CyberLeninka.

³¹ Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провѳербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 14.

frazeologizmlarni keng va tor ma'noda ajratmasdan paremalarni ko'chma ma'noda qo'llanilganlarinigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdik. Shu bilan birga o'zbek va ingliz tillaridagi to'liq yoki qisman ko'chma ma'no kasb etib, tilda tayyor holda uchraydigan, emotsionallik xususiyatlariga ega somatik komponentli barqaror birikmalar aynan bizning o'rganish obyektimiz markazida turadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbek va ingliz tillaridagi tananing yuqori qismi asosida shakllangan proverbial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Bizning tadqiqotimizda frazeologik birliklar yalpi tanlash metodini qo'llagan holda turli xil frazeologik, paremiologik lug'at, to'plam va manbalardan terib olindi.³² Statistik tahlil natijasiga ko'ra, ingliz tilida tahlilga tortilgan frazeologik birliklar soni 1190 ta. O'zbek tilida ularning salmog'i ko'proq – 1456 ta ekanligi aniqlandi. Somatizmlar tashqi va ichki a'zolar nuqtayi nazardan tashqi somatizm (ekzosomatik birliklar), ichki somatizmlar (endosomatik birliklar)larni tashkil etadi. Tashqi somatizmlar – bu inson tanasining tashqaridan bevosita idrok etiladigan, ya'ni ko'z bilan ko'riladigan yoki jismoniy seziladigan aniq anatomik qismlarini ifodalovchi til birliklaridir. Ular asosan konkret, denotativ leksik birliklar bo'lib, ko'pincha harakat, aloqa, idrok, muomala bilan bog'liq bo'ladi. Tashqi somatizmlar inson tanasi orqali dunyoni idrok qilishning eng asosiy vositalarini anglatadi. Bu somatik birliklar orqali: *insonning orientatsiyasi* (chap, o'ng, yuqori, past), *tashqi muhitga munosabati* (ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan tutish), *shaxslararo mulqot vositalari* (og'iz, til, bosh bilan ifoda) aks ettiriladi. Manbalarda keltirilishicha, “Inson tanasi – konseptual metaforalarning asosiy manbayi. Ayniqsa, tashqi a'zolar orqali inson dunyoni

³² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 1978, – 407 б.; Васильева Л. Краткость – душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения. – М.: ЗАО Центрполиграф, 2006. – 350 с.; Содикова М. Қисқача ўзбекча - русча мақол - маталлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Нармуратов З. Қисқача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент: ADAST POLIGRAF, 2020. – 84 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 1. – Тошкент, Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. – 372 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Мусоқулов А. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1989. – 512б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Тошкент, 2006. – 96 б.; Ray J. A Complete Collection of English Proverbs. – London: Forgotten Books, 2013. – P. 319.; Mieder W. A Dictionary of American Proverbs. First published. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P. 710.; Apperson G. L. English Proverbs and Proverbial Phrases: A Historical Dictionary. – London: J. M. Dent & Sons Ltd., 1929. – 736 p.; Кароматова М.М., Кароматов Х.С. Proverbs-мақоллар-пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. 400 б.; Margulis A., Kholodnaya A. Russian-English Dictionary of Proverbs and Sayings. – Moscow: Russky Yazyk Publishers, 1974. – 494 p.; Simpson J., Speake J. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Third Edition. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – P. 364.; Simpson J., Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth Edition. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 625.; Рустамов А. Миллий ғоя тарғиботида ўзбек халқ мақолларидан фойдаланиш. – Тошкент: Маънавият, 2007. – 44 б.; Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. – Vol. 2. Phrase, Clause and Sentence Idioms. – Oxford: Oxford University Press, 1983. – 1876 p.; Bohlke D. Skillful Reading and Writing. Student's Book. – London: Macmillan Education, 2012. – 110 p.; McCarthy M., O'Dell F. English Vocabulary in Use. Third Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – 303 p.; Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Meriyus, 2015. – 548 b.; Ahmad S. Hikoyalar to'plami. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – 256 b.; Qodirov P. Ona lochin vidosi: tarixiy roman. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 304 b.; Hemingway E. M. The Old Man and the Sea. – New York: Charles Scribner's Sons, 1952. – 127 p.; Twain M. The Complete Short Stories. Bantam Classic Reissue Edition. – New York: Bantam Books, 2005. – 737 p.

konseptual xaritada joylashtiradi”.³³

Tananing tashqi aʼzolari inson uchun belgi hamda ijtimoiy aloqaning markazi boʻlib xizmat qiladi. Ular inson jamiyatida turli emotsional, axloqiy, ijtimoiy belgilar sifatida talqin qilinadi. Masalan, *the head of the company* → *boshliq*, *to give smb a hand* → *yordam bermoq*, *to stand on someone's own feet* → *mustaqil boʻlmoq*, *tizzasi bukildi* → *itoat*, *qoʻl siltadi* → *befarqlik*, *ogʻzini yopdi* → *sukut*, *rozi boʻlish*.

Ichki somatizmlar – bu inson tanasining tashqi koʻz bilan koʻrinmaydigan, biroq biologik, fiziologik, emotsional va kognitiv faoliyatda asosiy rol oʻynaydigan ichki aʼzolarini bildiruvchi leksik birliklardir. Ushbu somatik birliklar, asosan, ruhiy holat, hissiyotlar, mental va madaniy oʻzlik tushunchalari, shuningdek, milliy tafakkurdagi konseptual metaforalar orqali boy semantik maʼnoga ega. Bu soʻzlar koʻpincha metaforik modellar orqali ishlatiladi, masalan, *Yurak – sevgi, jasorat*, *qoʻrquv* konsepti; *Jigar – yaqinlik, mehr, sabr* konsepti; *Qon – gʻazab, nasl, ruhiy munosabat*. George Lakoff va Mark Johnson oʻzlarining “Metaphors We Live By” asarida bu jarayonni “ontologik metafora” deb ataydi, yaʼni abstrakt holatlarni tana aʼzolari orqali tushunishdir.³⁴ Ichki somatizmlar oʻzbek va ingliz tillaridagi koʻplab frazeologizmlarda emotsional va ruhiy holatlarni ifodalashda ishtirok etadi. Ular oʻzida milliy mentalitet, tarixiy-badiiy idrok, va axloqiy bahoni mujassam etadi. Umuman, har qanday tilda frazemalar madaniy muhitni aks ettiradigan oʻziga xos til vositalaridir. Ular tarixiy voqealarni, turli millatlar ruhiyati bilan bogʻliq boʻlgan ichki psixologiyani namoyon etadi va turmushdagi muayyan urf-odatlarini ham anglatadi. Ularning shakllanishi har qaysi tilda ham ushbu tilda soʻzlashuvchi xalqning maʼlum qoidalariga, anʼnalariga, urf-odatlariga muvofiq roʻy beradi.

Inson tanasining eng muhim aʼzolaridan biri boʻlgan *head/bosh* nafaqat anatomik birlik sifatida, balki til va tafakkur tizimida semantik markaz sifatida alohida oʻrin egallaydi. *Bosh* aʼzosi, odatda, *aql, fikr, rahbarlik, masʼuliyat, hissiyotlar nazorati* kabi tushunchalar bilan bogʻlanadi. Shu boisdan *head/bosh* leksemasi koʻplab frazeologizmlarda ishlatiladi. Masalan, oʻzbek tilida *Bosh omon boʻlsa doʻppi topilar* proverbial frazeologik birligi oʻzbek xalqining lingvomadaniyatida insonning yaxshi, yorugʻ kunlarga, sogʻlik, tinchlik-xotirjamlik boʻlsa, yaxshi, yorugʻ kunlarga umidi, oʻzini taqdir ixtiyoriga topshirib tavakkal qilish maʼnolari ifodalangan. *Bosh kiyim* sifatida esa bu yerda *qalpoq, shapka, shlyapa* soʻzlari emas, *doʻppi* soʻzi qoʻllanilgan. Maʼlumki, *doʻppi* oʻzbek xalqining milliy *bosh kiyimi* hisoblanadi. Shu oʻrinda lingvomadaniy birlik sifatida etalon vazifasini bajarib kelgan. *Bosh omon boʻlsa, doʻppi topilar* paremasi oʻzbek xalqining inson qadri, salomatlik va hayotni ustuvor qadriyat deb bilishini aks ettiradi. U hayotga umid bilan qarash, bardoshli boʻlish va moddiy yoʻqotishlarga sabr qilish kabi qadriyatlarni targʻib etadi. Oʻzbek tilidagi *Bosh omon boʻlsa doʻppi topilar* proverbial frazeologik birligiga ingliz xalqining *He that hath no head, needs no hat* frazeologik birligi ekvivalent sifatida gavdalanadi. Ingliz xalq

³³ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 134 p.

³⁴ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 134 p.

paremasida *hat* leksemi qo'llanilgan. Ushbu leksema ingliz xalq lingvomadaniyatiga xos bo'lib, unga ko'ra, ushbu bosh kiyimni boylar, siyosatchilar, zodagonlar kiyadi. Shu bilan birga, ma'lum kasb egalarining bosh kiyimlari ularning ishini bildiradi: *Chef's hat* – oshpaz, *Hard hat* – qurilish ishchilari, *Police hat/Firefighter hat* – huquq-tartibot yoki favqulodda xizmatlar. Bu orqali inglizcha *hat* so'zi faqat kiyim emas, balki vazifa yoki mas'uliyatni anglatadi. Ilmiy manbalarda berilishicha, Sherlok Holms doimiy ravishda bosh kiyim (deerstalker hat) kiygan – bu uning aql-idrok, kuzatuvchanlik ramziga aylangan. O'zbek tilida *hat* so'zining ma'noviy ekvivalenti *do'ppi, shapka*, bosh kiyimi bo'lsa-da, uning ramziy ma'nolari har doim ham mos kelavermaydi.

Marosim va urf-odatlar nomining shakllantirilishida somatizmlar faol ishtirok etadi. Buni har bir xalqning marosim va urf odatlari nomida somatizmlarning faol qo'llangani ham dalillaydi. Masalan, *Soch to'yi, Tish to'y, Oyoq bosdi* yoki *Oyoq chiqardi*³⁵ kabilar shular jumlasidandir. Insoniyat tarixida bolalik davri bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Har bir xalq o'z farzandining muhim holatlarini nishonlash orqali uni jamiyatga moslashtirish, qadriyatlarni singdirish va psixologik tayyorgarlikni shakllantirishga intiladi. O'zbek lingvomadaniyatida mavjud bo'lgan *tish to'yi* marosimi shunday an'anaviy amaliyotlardan biridir. Ingliz lingvomadaniyatida esa bu bosqich *Tooth Fairy*³⁶, ya'ni tish farishtasi obrazi orqali ramziy marosim shaklida nishonlanadi. Shimoliy Amerika va Buyuk Britaniya madaniyatida bolaning tishi tushganida, uni yostiq ostiga qo'yadi. *Tooth Fairy* [tish farishtasi] tunda kelib, bu tishni olib ketadi va o'rniga pul yoki kichik sovg'a qoldiradi deb qaraladi. Bu inglizlarning keng tarqalgan oilaviy urf-odat hisoblanadi.

Udumshunos G.P.Snesarev³⁷ bolaning ilk tushgan tishini ham qo'ylar ko'p saqlanadigan joyga tashlanishi haqida ma'lumot berib o'tgan. Bolaning ilk tishi chiqqanda kekka kishilarga "shirguruch" pishirib tarqatilgan. Bu udum ham *Tish to'yi* deb yuritilgan. Shuning uchun xalq orasida bolaning ilk tishlari "guruch", "birinch" deb ham "metonimiya" asosida yuritilishi kuzatiladi.

O'zbek tilidagi *Yelkasi chopon ko'rmagan* iborasi ko'chma ma'noda kambag'al, izzat-hurmat ko'rmagan, quda-andalik bo'lmagan, mehr-oqibat bilmagan mazmunini anglatadi. Iborada *tagi-zoti past, ko'rmaganning ko'rgani qursin* degan takabburona naql mazmuni ham bor. Chopon esa xalqimizning milliy kiyimi sanaladi. Aynan shu ma'noni izohlab keluvchi inglizcha proverbial frazeologizm aniqlanmadi.

Dissertatsiya ishimizda diniy e'tiqod bilan bog'liq frazeologizmlar ham aniqlandi. Ramazon oyida ro'za tutganlar saharlikdan so'ng yegulik iste'mol qilmaydilar. Bu holat xalq tilida *og'iz yopish* deyilsa, ularning ovqat yeyish bosqichi *og'iz-ochish* deb yuritiladi.

³⁵ Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи. Филол. фан. докт. (DSc) диссертацияси. – Бухоро, 2022. – Б.58.

³⁶ <https://www.123dentist.com/a-brief-history-of-the-tooth-fairy/>

³⁷ Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – Москва: Наука, 1983. – 213 с.

Ingliz tilida keng tarqalgan frazeologik birliklardan biri bo'lgan *force something down someone's throat* iborasi metaforik ifoda sifatida ko'p hollarda majburiy qabul qildirish, fikrni yoki g'oyani zo'rlik bilan singdirish, yoki inson irodasiga qarshi bosim o'tkazish ma'nolarini anglatadi. Bu ibora hozirgi zamonaviy kommunikativ muhitda, ayniqsa, siyosiy, reklama, ta'lim va shaxslararo munosabatlar kontekstida faol ishlatiladi. Aynan shu ma'noni izohlab keluvchi o'zbekcha proverbial frazeologizm aniqlanmadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tananing o'rta va pastki a'zo nomlari ishtirokidagi proverbial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan. Frazeologik birliklar tilning obrazlilik va milliy-madaniy tafakkurni ifodalovchi boy qatlamidir. Ularda milliy mentalitet, xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlari mujassam bo'ladi.

O'zbek tilida *yurak* va uning sinonimlari *dil*, *qalb*, *ko'ngil* kabilar ishtirokida hosil bo'lgan proverbial frazeologizmlar keng qo'llaniladi. Mazkur verbal frazeologizmlar metaforik mazmun olgan holda, insonlarning kechinmalari, hissiyotlari hamda boshqa kayfiyat bilan bog'liq sifatlarni voqelantiradi. *Yaxshi so'z - yurak yog'i, yomon so'z - yurak dog'i; Qozon qorasi ketar, yurak qorasi ketmas.*

Ingliz lisoniy madaniyatida *heart* somatizmi ishtirokidagi verbal frazeologizmlar *botirlik*, *kuchlilik*, *qahramonlik* xislatlarini tavsiflash bilan birgalikda, insonning “ichki dunyosi” haqida ham ma'lumot berishi mumkin. *Please your eye and plague your heart; Absence makes the heart grow fonder.*

O'zbek lingvomadaniyatida *yurak* ruhiy va jismoniy holatning ko'rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Masalan, *Yuragi orqaga tortmoq* (qo'rqmoq), *Yuragi ezilmoq* (qattiq qayg'urmoq), *Yuragi joyiga tushmoq* (xotirjam bo'lish). *Yurak hovuchlamoq* iborasi o'zbek oilaviy va ijtimoiy hayotida keng ishlatiladi. Ayniqsa, ota-onalar farzandlari uchun har doim *yurak hovuchlab yashashlari* milliy mentalitetimizga xos xususiyatdir. Bu ibora emotsional va ekspressiv bo'lib, ko'proq nutqiy ifodadorlikni oshirish uchun ishlatiladi. Demak, *Yurak hovuchlamoq* iborasi o'zbek xalqining hissiyotlarni ifodalashdagi boy tasavvurini namoyish etadi.

O'zbek tilidagi *Qornini yorsa, alif chiqmaydi* iborasida Alif – arab alifbosining birinchi bosh harf-tovushi, to'g'ri chiziq shaklini ifodalaydi. *Qornini yorsa, alif chiqmaydi*, deganda bilimlar dunyosidan bexabar, xudo bexabar, hatto boshida alifboning alifi ham yo'q mazmuni ko'zda tutiladi. Aynan alif so'zining tanlanishi esa tilimizning islomga yaqinligi, arab alifbosidan boxabar ekanligidan dalolat beradi. Bu tilimizning o'ziga xos xususiyati sanaladi. Ingliz tilida keng tarqalgan somatik frazeologizmlardan biri *have butterflies in one's belly* iborasi bo'lib, u insonning hayajonli, asabiy yoki qo'rquv aralash hissiyotlarini ifodalashda qo'llaniladi. Ushbu ibora metaforik jihatdan sezgi organi – “belly” (qorin) orqali emotsional holatning jismoniy ko'rinishini ifodalaydi. Inson psixologiyasidagi emotsional kechinmalar ko'pincha tanaviy sezgi vositasida tasvirlanadi va bu ibora shu tendensiyaning yorqin namunasidir. G'arb

lingvomadaniyatida tananing ichki kechinmalari ko‘pincha tashqi obrazlar – hayvon, ob-havo, harakat vositalari orqali ifodalanadi.

Belida belbog‘i bor iborasi o‘zbek xalqida odamning ishonchli, tayinli, diyonatliligini bilmoqchi bo‘lsa, *belida belbog‘i bormi*, deydi. Belda belboqning bo‘lishi – suyansa, ishonsa, qo‘shilsa bo‘ladigan odam mazmunini ifodalaydi. Bu ibora kishi hamiyatiga tegish, yigitmisan o‘zi, qabilida raqibning jig‘iga, g‘ashiga tegish maqsadida ishlatiladi. O‘zbek xalqida belida belbog‘i borlik yigitlik, juvonmardlik, tayinli, subutli, diyonatlik garovini anglatadi. O‘zbek madaniyatida *belbog‘* o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, o‘zbek xalqi uchun nomus va or tushunchalarini ifodalaydi.

Qo‘l/hand lug‘aviy birliklari ishtirokidagi proverbial frazeologizmlar o‘zbek va ingliz tillarida inson hayoti bilan bog‘liq hodisalar (ish faoliyati, kundalik hayot, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar kabilar) tavsifi uchun xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilida – *Yalqovning qo‘li qo‘ynidan chiqmas; Ikki qo‘l qilgan ishni bir qo‘l qilolmas*; ingliz tilida – *Don’t bite the hand that feeds you; Fortune never comes with both hands full*. Ma’lumki, ingliz madaniyatida *hand* somatizmining faollashuvida mehnatning samarasi ifoda etiladi. *Many hands make light work; You can’t milk a cow with your hands in your pants*. O‘zbek madaniyatida mehnat qilish hayot talabi ekanligi ta’kidlanadi va ushbu hayotiy ehtiyojni ro‘yobga chiqarishning asosiy vositalaridan biri *qo‘l* ekanligi e’tirof etiladi. Chunki *qo‘l* harakatisiz biron-bir jismoniy mehnatni bajarish va kundalik ehtiyojni ta’minlashning imkoni yo‘q: *Mehnatsiz ish bitmas, erinchoqning qo‘li yetmas; Mehnat qilsang qirga, qaram bo‘lmassan qo‘lga*. Ingliz tilida *hand* somatizmi ishtirok etgan proverbial tuzilmalar ba’zan insonga xos sifatlarni (masalan, halollik, vijdonlilik, rahmdillik kabilar) tasvirlaydi: *One hand washes the other; The hand that rocks the cradle rules the world*.

O‘zbek tilidagi *Oyoq bosish* iborasi o‘z va ko‘chma ma’nolarda ishlatiladi. Oyoq bosmoq – sinib tuzalgan oyoqning ilk bor yerga bosish yoki go‘dakning atak-chechak bilan birinchi qadamlarini qo‘yishi kabilarda o‘z ma’nosida qo‘llangan. Shuningdek, “Oyoq bosish” o‘zbek xalq odati ham bor. Kelin-kuyov ilk bor chimildiqqa kirganda *oyoq bosish* odati amalga oshiriladi. Taomilga ko‘ra kim kimning oyog‘ini birinchi bo‘lib bossa, qurilayotgan oila, ro‘zg‘orga o‘sha bosh bo‘ladi, deyishadi. Musulmonchilik – o‘zbekchilikda yigit oilaga bosh bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun ham kelin nazokat bilan kuyoviga oyoq bostirar ekan, so‘ng irimiga o‘zi ham beringing oyog‘ini bosgan bo‘ladi. Bu o‘zbek xalqining noyob, milliy va qadimiy urf-odati sanaladi. Shu o‘rinda o‘zbek tilida diniy mazmunga ega somatik frazemalar: *Qo‘lini halollamoq* frazeologizmi o‘g‘il bolani sunnat qilishni ifoda etadi. Ushbu odat barcha musulmon xalqlarida mavjud. Bola sunnat qilingandan so‘ng uning qo‘li halol bo‘ladi va u musulmon sanaladi. Kalima so‘zi musulmonlikka iqror bo‘lish uchun aytiladigan iborani ifoda etadi. *Tili kalimaga kelmaslik* frazeologik birligi kalimani keltira, ayta olmaslikni bildiradi. Shu bilan birga ingliz tilida ham shunday iboralar borki ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini topish mushkul sanaladi.

Ingliz madaniyatida besh soni turli xil ramziy ma’nolarga ega, muvozanat,

inson tajribasi, tabiat, bilim va to'liqlik bilan bog'liq. U, asosan, insonning beshta sezgi a'zolari – ko'rish, eshitish, tegish, ta'm va hid bilan bog'liq. *A five finger exercise* – o'zbek tilida qo'ldan keladigan ish iborasiga ekvivalent bo'la oladi. Besh soni o'zbek madaniyatida din, ijtimoiy qadriyatlar va an'anaviy e'tiqodlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ramziy ma'nolarga ega. *Besh panja teng emas; Besh qo'l barobar* emas maqollari tenglik va tengsizlikni bildirsa, *Tilini besh qarich qilmoq* – gap qaytarmoq, hurmatsizlik qilmoq ma'nolarini ifodalaydi.

Tahlil natijasida birdan ortiq somatik birliklar orqali hosil bo'lgan frazeologizmlar ham aniqlandi. Ingliz tilidagi *to have eyes in the back of one's head* iborasining shakllanishiga *eyes* [ko'z], *back* [orqa], *head* [bosh] leksemalari mantiqiy asos bo'lgan. Ibora tarkibidagi *eyes* [ko'zlar] leksikasi xabardorlik va sezgirlikni anglatadi. Ushbu kontekstda "eyes" so'zi odamning to'g'ridan-to'g'ri oldida bo'lmagan narsalarni ko'rish yoki sezish qobiliyatini ifodalaydi. *Back of one's head* (boshning orqasi), odatda, ko'rinmaydigan tana qismi sifatida tasvirlanadi, bu esa har tomonlama ko'rish qobiliyatining imkonsizligini anglatadi. Ibora odamning atrof-muhitga nisbatan yuqori darajadagi hushyorlik yoki xabardorlikni ifodalaydi. Bu odam kuzatilmaydigan narsalarni sezishi mumkinligini bildiradi, masalan, ota-onalar o'z farzandlari nima qilayotganini ko'rmasalar ham biladigan holatlardagi kabi.

Xususan, ingliz lingvomadaniyatida *to have eyes in the back of one's head* iborasi ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarda xabardorlik va hushyorlikka bo'lgan madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi obrazli ifodadir. Ushbu ibora lingvistik jihatdan oddiy, lekin madaniy jihatdan boy bo'lib, idrok va mas'uliyat obrazlarini aks ettiradi. Bu iborani o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin, chunki *orqangizda ko'z bo'lish* degan ibora o'zbek tilida mavjud emas. O'zbek tilida *ko'z* so'zi ko'pincha diqqat, kuzatish va xabardorlik bilan bog'liq ma'nolarda ishlatiladi. Bu jihatdan ibora tarjimasi uchun o'zbekcha muqobil so'zlar ishlatilishi mumkin. Ingliz tilidagi *orqa* ma'nosi o'zbek tilida ham xuddi shunday, lekin bu so'zning obrazli ma'nosi o'zbek madaniyatida kam uchraydi. O'zbek madaniyatida diqqat va e'tibor juda muhim qadriyat hisoblanadi, ayniqsa, jamiyatning kattalari va hurmatli kishilari bilan bog'liq holda. Shuning uchun, bu ibora o'zbekcha kontekstda boshqa ifodalar orqali ham qabul qilinishi mumkin. O'zbek madaniyatida *ko'z* bilan bog'liq boshqa obrazli iboralar ham mavjud, masalan, *ko'z quloq bo'lish* biroq inglizcha tahlilga tortilgan iboraga *yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq* idiomasi to'liq muqobil bo'ladi.

Barcha tillarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, bular esa xalqning lingvomadaniyati bilan bog'liq, shu bois ham ba'zi frazeologizmlarning boshqa tillarda ekvivalentini topish mushkul bo'ladi. Masalan, *kelinning boshiga ro'mol o'rash*, ya'ni *boshi ochiq yurmaslik* odati bilan bog'liq. Bu frazeologik birlikning ingliz tilida ekvivalenti yo'q. Shu bilan birga ingliz tilida ham shunday iboralar borki ularning o'zbek tilidagi muqobillarini topish mushkul sanaladi.

Kuzatuvlar ko'rsatishicha, har ikkala tilda ham somatik birliklarning frazemalarni hosil qilish imkoniyatlari bir xil emas. Ayrim somatizmlar (masalan, o'zbek tilidagi *bosh*, *qo'l*, *yurak*, *ko'z*; ingliz tilidagi *head*, *hand*, *heart*, *foot*, etc.) frazemalar tarkibida tez-tez uchrasa, boshqalari (masalan, o'zbek tilidagi *tizza*, *kiprik*, *lab* kabilar, ingliz tilidagi *back*, *cheek*, *liver*, *lung*) frazemalarda kamdan-kam qo'llaniladi.

XULOSA

Somatik komponentli idiomalar turli tillar tizimida alohida o‘rin tutadi. Ularda muayyan xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, turmush tarzi, milliy-madaniy xususiyatlari aks etadi. Binobarin, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar semantik va milliy-madaniy xususiyatga ega. Shular asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bugungi kun tilshunosligi doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar borliq – inson – tafakkur – til munosabatlari rakursida amalga oshirilayotgani tabiiy hol va zaruratdir. Til va til hodisalarini tashqi va ichki omillar hamkorligi nuqtayi nazaridan tadqiq etish olam manzarasi, uning lisoniy tasviri, insonning olamni bilish, idrok etish, interpretatsiyalash va u haqidagi bilim, ma’lumotlarni yetkazish borasidagi qator masalalarni to‘g‘ri va samarali nazariy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

2. Xalq yangi-yangi tushunchalarni nomlash, ifodalash, turli ijtimoiy holatlarni voqelantirish maqsadida yoki mavjud tushunchalar, voqeliklarning turli qirralarini ochish niyatida shakl jihatidan qisqa, lekin chuqur ifodali ma’noga ega birliklarni yaratadi. Bu, albatta, o‘sha xalqning ko‘p yillik tajribasidan o‘tgan, o‘sha millat, elat, qavm uchun tushunarli bo‘lgan iboralardir. Ushbu frazeologik birliklar odatda biron narsani nafaqat oddiygina nomlaydi, balki uning konnotativ (stilistik) bo‘yoqdorligi, gapiruvchining borliqqa bo‘lgan munosabatini ham baholaydi, shu boisdan ham frazeologik ma’no tilda o‘ziga xos ma’no hisoblanadi.

3. Boshqa til tizimlaridan farqli o‘laroq, avtonom til inventariga ega bo‘lgan frazeologiya tagtizimi tillarning boshqa sath tizimi birliklaridan o‘zining milliy madaniy, ruhiy-tarixiy, emotsional-ekspressiv xususiyatlariga ega bo‘lgan birliklari orqali ajralib turadi. Shu bilan birga, frazeologik tagtizim birliklari boshqa sath birliklari kabi o‘zining paradigmatic, ya’ni sinonimik, antonimik, sintaktik-semantik variantlari, sintagmatik valentligiga, derivatsion xususiyatiga ega bo‘lgan holda bir biri bilan turli munosabatda bo‘lgan frazeologik tagtizimni tashkil etadi.

4. Milliy-madaniy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan frazemalar xalqlarning milliy urf-odatlar, bayram-tanatanalari, milliy kiyimlar, milliy taomlar kabi o‘z madaniy dunyoqarashlari zahirida shakllanib, xalqlarning bunday o‘ziga xos tomonlari o‘z tillarida shakllangan frazemalar orqali ifodalanadi. Ushbu holatlar nafaqat tillarning o‘ziga xosligi, balki milliy betakrorligini ham ko‘rsatadi.

5. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof qilinadi va milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me’yorlarni o‘zida shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy belgilar tizimidir. Madaniyatning eng qadimiy kodlaridan biri somatik kod hisoblanadi. Somatik kod – bevosita inson tanasi a’zolari bilan bog‘liq bo‘lib, tananing umuman uning qismlari ularga xos bo‘lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy va hissiy belgilar, imo-ishoralar barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a’zolari ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi.

6. Frazeologik birliklar xalqning madaniyatini, qadriyatini o'zida aks ettiruvchi tilning ko'zgusidir. Shu boisdan ham frazeologik birliklarni konseptual-lingvomadaniy tahlil etish frazemalarning milliy-madaniy mohiyatini aniqlashda muhim sanaladi. O'zbek va ingliz tillaridagi frazemalarning tematik guruhlar va ularda paremalarning soni bir xil emas. Buning sababi o'zbek va ingliz xalqlarining tarixi, bir-biriga o'xshamagan mentaliteti, har xil moddiy va ma'naviy madaniyati, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy va kundalik turmush tarzi, har xil dinlarga e'tiqod qilishi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlari, mamlakatlarning geografik joylashuvi va boshqalar bilan izohlanadi.

7. Proverbial frazeologizmlar til tizimining bir qismi bo'lib, ular ijtimoiylik, tarixiy ong, axloqiy-estetik me'yorlar va milliy xarakterni mujassamlashtiradi. Ular odatda turg'un, umumlashgan ma'no ifodalovchi, aforizm darajasiga ko'tarilgan, xalq og'zaki ijodining qisqa shaklda berilgan ko'rinishlaridir.

8. Chog'ishtirilayotgan har ikki tilda ham eng ko'p uchraydigan somatik proverbial frazeologizmlar quyidagi semantik guruhlariga ajratildi:

- Idrok va tafakkur bilan bog'liq (bosh, ko'z, quloq)
- Hissiyot va ruhiy holatni ifodalovchi (yurak, ko'krak, qorin)
- Ijtimoiy harakat va munosabat bilan bog'liq (qo'l, oyoq, yelka, bo'yin)

9. Somatik proverbial frazeologizmlar orasida semantik ekvivalentlar, strukturaviy xususiyatlar va madaniy-mental farqlarga asoslangan birliklar aniqlandi. Masalan, o'zbek tilidagi "Bosh bo'lmasa, tana ojiz" maqoli ingliz tilidagi "If the head is sick, the whole body suffers" iborasi bilan semantik jihatdan yaqin, ammo "Yurak yurmasa gavda harakat qilmas" kabi frazemalarga ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topilmaydi, bu esa xalqona obraz va mentalitet tafovutini ko'rsatadi.

10. Frazeologik birliklar faqat til hodisasi emas, balki xalq madaniyati va dunyoqarashining to'plangan aksi hisoblanadi. Lingvokulturologik yondashuv ushbu birikmalarni milliy madaniyat, mentalitet, axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilishga imkon beradi. Ayniqsa, somatik frazeologizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlari asosida shakllangan maqol va iboralar – xalqning tana konsepsiyasi, insoniylik mezonlari, ruhiyat haqidagi qarashlarini o'zida mujassam etadi. Masalan, o'zbek tilidagi "qo'lida kuch bor, yuragida nur bor" degan maqolda *qo'l* – kuch-qudrat, *yurak* esa – ma'naviyat va ezgulik ramzi sifatida ifodalangan. Ingliz tilidagi "cold feet" (qo'rqish) yoki "give a hand" (yordam berish) iboralari ham ana shu xalqning tajribasiga asoslangan semantik metaforalardir. Bu maqol va iboralar somatik frazeologizmlar orqali xalqning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va hatto ijtimoiy munosabatlar ahamiyatini aks etadi.

11. Proverbial frazeologizmlarni o'rganishda ularning real nutqdagi qo'llanilishi, kommunikativ funksiyasi va pragmatik xususiyati alohida ahamiyatga ega. Har qanday frazeologik birlik, xususan somatik frazemalar, har doim muayyan kontekstda, maqsadli kommunikatsiya doirasida qo'llaniladi. Pragmatik yondashuv bu birliklarning nutq vazifasidagi rolini (masalan, nasihat, tanqid, e'tirof), so'zlashuvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatga ta'sirini, emotsional va stilistik

ahamiyatini o'rganishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi "put your foot in your mouth" iborasi (noto'g'ri gapirib, noqulay holatga tushmoq) va o'zbek tilidagi "og'zidan ko'pigi chiqib ketdi" iborasi – ikkalasi ham salbiy pragmatik ma'noga ega bo'lib, suhbatdagi noqulaylik yoki shoshqaloqlikni ifodalaydi.

12. Somatik komponentli proverbial frazeologizmlar xalq tilining eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, ularni tahlil qilish orqali til va tafakkurning o'zaro aloqadorligi, til vositasida aks etuvchi madaniyat va ong tizimi haqida asosli ilmiy xulosalar chiqarildi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik o'ziga xosliklarini aniqlashda, madaniyatlararo tafakkurni qiyosiy tahlil qilishda va eng asosiysi, milliy o'zlikni anglash hamda uni boshqa xalqlarga tanitishda katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/24.09.2025.Fil.197.01
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
TERMEZ UNIVERSITY OF ECONOMICS AND SERVICE**

TERMEZ STATE UNIVERSITY

KHOLBOYEVA IRODA SHUKHRAT KIZI

**CONTRASTIVE STUDY OF PROVERBIAL PHRASEOLOGICAL UNITS
WITH SOMATIC COMPONENTS IN UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES**

**10.00.06 - Comparative literary criticism, contrastive linguistics and
translation studies**

**DISSERTATION ABSTRACT
for a doctor of philosophy degree (PhD) in Philological sciences**

Termez– 2025

The theme of the dissertation for for a doctor of philosophy degree (PhD) in Philological sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under №B2025.1.PhD/Fil5817

The doctoral thesis has been carried out at Termez University of Economics and Service. The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) has been placed on the webpage of the Scientific Council at www.tues.uz and on the web-site of educational portal «Ziynet» www.ziynet.uz.

Scientific supervisor:

Mamataliyeva Navbakhor Xujamberdiyevna
doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor

Official opponents:

Bakirov Poyon Uralovich
doctor of Philological Sciences, Professor

Jabborov Sherzod Xalikulovich
doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Associate Professor

Leading organization:

Karshi state university

The dissertation defense will be held on "26" december 2025 at 9.00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/24.09.2025.Fil.197.01 at Termez university of economics and service (Address: 190111, Termez, "Ibn Sino" street, 38-B Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of Termez university of economics and service, (registration number 1). Address: 190111, Termez, "Ibn Sino" street, 38-B Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

The dissertation abstract is distributed on "19" december 2025.

(Mailing report № 1 on "19" december 2025).



O.P.Uralova

Chairperson of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Associate professor

Z.R.Narmuratov

Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Associate professor

B.Umurkulov

Chairperson of the Scientific Seminar under Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Associate professor

INTRODUCTION (Abstract of PhD dissertation)

The relevance and necessity of the dissertation topic. At the present stage of development in global linguistics, the formation and semantic expression of lexical units at various levels of the language system continue to attract the attention of researchers. In this process, the representation of phraseological units as a distinct semantic group, the identification of features specific to their realization in speech from a communicative and pragmatic perspective, as well as the origin, semantic, structural, pragmatic, and linguocultural characteristics of lexical units expressing phraseologisms, have always been among the primary objectives of linguistic research. In particular, studies focusing on the analysis of such lexical units in connection with somatic elements are of significant importance.

The number of scholarly studies devoted to the comparative analysis of somatic phraseological units is increasing in the field of world linguistics. These studies place particular emphasis on the semantic-structural, national-cultural, anthropocentric, and conceptual analysis of phraseological units. Indeed, phraseological expressions reflect the unique features associated with the traditions, lifestyle, beliefs, and history of each nation in an expressive and figurative-emotive form.

In the context of the rapid reforms being carried out in our country, special attention is being paid to the development of the modern Uzbek language, including the study of issues related to comparative literary studies, comparative linguistics, and translation studies. In addition, particular emphasis is placed on "the development of fundamental, applied, and innovative scientific research, the preservation of existing scientific schools and the creation of new ones, strengthening their human resource potential, and encouraging the active involvement of talented youth in scientific activities".¹ This, in turn, highlights the particular importance of investigating the internal potential of the language, enhancing national spirituality, and instilling it in the consciousness of the younger generation. In this regard, there is a need to further deepen scientific research on the semantic and linguocultural characteristics of phraseological units with somatic components in languages of different typological systems.

This dissertation to a certain extent contributes to the implementation of the tasks outlined in the following normative-legal documents: Presidential Decree No. PF-5847 of October 8, 2019, "On the Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; Presidential Decree No. PF-6084 of October 20, 2020, "On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy"; Presidential Decree No. PF-60 of January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"; Presidential Decree No. PF-158 of September 11, 2023, "On the Strategy 'Uzbekistan – 2030'"; Resolution of the Cabinet of

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 - oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
https://nrm.uz/contentf?doc=602358_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

Ministers No. PQ-3775 of June 5, 2018, “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Educational Institutions and Ensure Their Active Participation in Comprehensive Reforms in the Country”; Resolution No. PQ-5117 of May 19, 2021, “On Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a New Qualitative Level”; as well as the Cabinet of Ministers’ Resolution No. 610 of August 11, 2017, “On Measures to Further Improve the Quality of Foreign Language Teaching in Educational Institutions,” and other sectoral normative-legal documents.

The connection of research with the priority directions of the development of science and technology of the Republic.

The research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the Republic: 1. “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

The level of study of the problem. In world linguistics, the formation of phraseology as an independent branch of linguistic science and the study of its various aspects have been addressed in the scholarly works of such researchers as E.D.Polivanov, N.N.Amosova, M.T.Tagiyev, N.M.Shansky, I.I.Chernysheva, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, and V.M.Mokiyenko.²

The initial scholarly studies on phraseological units in the Uzbek language have been presented in the research works of M.Khusainov, Sh.Rakhmatullayev, M. Ruzikulova, Y.D.Pinkhasov, M.I.Umarkhodjaev, A.Isayev, H.Berdiyev, H.Yuldoshev, A.M.Bushuy, Kh.Kakhkharova, and A.Shomakhshudov.³

² Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI. – Ленинград: Издательство Ленинградского восточного института, 1928. – 229 с.; Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 227 с.; Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка. – Баку: Маариф, 1966. – 150 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1969. – 315 с.; Чернышева Н.И. Фразеология современного немецкого языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 200 с.; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1972. – 288 с.; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Высшая школа, 1977. – 267 с.; Мокиенко В.М. Славянская фразеология – Москва: Высшая школа, 1980. – 207 с.

³ Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. АКД. – СамГУ, 1959. – 18 с.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 264 б.; Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – 22 с.; Пинхасов. Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 80 б.; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва., 1972. – 27 с.; Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.; Бердиев Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд: Нашриётсиз, 1977. – 38 б.; Бушуй А.М. Лексикографические описание фразеологии. – Самарканд: Издательство Самаркандского государственного университета, 1982. – 114 с.; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с.; Каххарова Х. Фразеология Абдуллы Кадыри: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 24 с.; Шомакшудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 528 б.

In English linguistics, the semantic, linguocultural, and structural aspects of phraseological units have been studied in the scholarly works of Western researchers such as N.R.Norrick, B.Altenberg, A.R.Kovi, R.Glezer, G.Knappe, E.Fraser, J.Gibbons, A. De La Granja, Y.Kamakura, M.L.Beshaj, A.Vrbins, M.Vrbins, and A.A.Dabrovska.⁴

To the scientific research conducted on somatism and their expression in phraseological units Yu.A.Dolgoplov, Ye.F.Arsenteva, Ye.V.Nikolina, A.Yu. Scientific research works of scientists such as Musalova, N.A. Turapova are of great importance.⁵

It is worth emphasizing that somatic phraseologisms in the Uzbek language were first theoretically studied by A.Isayev.⁶ In the study of proverbs as paremiological units, the etymological, semantic, structural, translational, and linguocultural features of proverbs have been thoroughly analyzed in the scholarly works of researchers such as A.Taylor, A.Dantes, V.Meider, J.Rey, G'.Salomov, M. Fozilov, M.Tuychiyev, M.Hakimov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaksudov, Sh.Shorakhmedov, B.M. Jurayeva, A.Musokulov, P.U.Bakirov, G.I.Ergasheva, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliyeva, Sh.Tojiboyev, M.A.Temirova, and O.P.Uralova.⁷

⁴ Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. – 213 p.; Bengt Altenberg, A.R. Cowie. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 238 p.; Gläser, Rosemarie. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // Phrasology. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 245 p.; Knappe G. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study before 1800. – — Bern; Berlin; Bruxelles; Frankfurt am Main; New York; Oxford; Wien: Peter Lang, 2004. – 664 p.; Fraser Edward, Gibbons John. Soldier and Sailor Words and Phrases. – New York: E.P. Dutton and Company, 2004. – 372 p.; Álvarez de la Granja, María (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. – Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. – 386 p.; Kamakura Y. Collocation and preposition sense: a phraseological approach to the cognition of polysemy. A thesis submitted to the University of Birmingham for the degree of doctor of philosophy (PhD). – Birmingham, 2011. – 337 p.; Beshaj M.L. Phraseological Units Used in the Functional Styles in English and Albanian Language // Mediterranean Journal of Social Sciences// pub.by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome: Vol – 4 № 2; May, 2013. – P.453-456.; Vrbinc A., Vrbinc M. Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene // Revista de Lingüística Teórica y Aplicada. Concepción (Chile), 52 (1), I Sem. 2014. – P.133-153.; Dabrovska A.A. Syntactic Study of Idioms. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 372 p.

⁵ Долгополов Ю.А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии (на материале русского, английского и немецкого языков): Автореф. дисс. канд. филол.наук. – Казан, 1973. – 27 с.; Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц (на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках). – Казань: Издательство Казанского университета, 1989. –130 с.; Николина Е.В. Соматические фразеологизмы, характеризующие человека в тюркских языках Сибири и казахском: Автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Новосибирск, 2002. – 24 с.; Мусалова А.Ю. Соматические фразеологические единицы в ногайском языке в сопоставлении с английским: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2015. – 186 с.; Турапова Н. А. Япон ва ўзбек тиллари соматик фразеологизмларининг чоғиштирма тахлили (лингвомаданий аспект). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2020. – 146 б.

⁶ Исаев А. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1976.

